

Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining ikkinchi bosqichi davom etmoqda

// 10.02.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/aholi-va-qishloq-xo-jaligini-ro-yxatga-olish-tadbirining-ikk>



Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi PF-173-son Farmoni ijrosi doirasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining ikkinchi bosqichi davom etmoqda.



Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumaniga biriktirilgan "O'zkimyosanoat" AJ vakillari ishtirokida aholini ro'yxatga olish jarayoni bo'yicha mahalla fuqarolar yig'inlaridagi yettilik faoliyati o'rganildi. O'rganish jarayonida mahalla yettiliklariga tegishli tushuntirishlar va amaliy ko'rsatmalar berildi.



Jumladan, "Zavqiy" va "Xojamahmud" mahalla fuqarolar yig'inlariga tashrif buyurildi va aholini xatlovdan o'tkazish jarayonida yuzaga kelayotgan masalalar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'rildi.

